

## O'ZBEKISTON TARIXI

- 1.** Amir Temur davlatining poytaxti bo'lgan shaharni toping.

A) **Samarqand**    B) *Buxoro*    C) *Kesh*  
D) *Shosh*

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining o'rta asrlar davriga oid. Amir Temur 1370-yil iyul oyida Samarqandda katta qurultoy chaqiradi. Qurultoyda markaziy davlat tizimini shakllantirish va qo'shin tuzish masalalari muhokama etiladi. Samarqand davlat poytaxti deb e'lon qilindi.

**To'g'ri javob:** **A**

**Manba:** A.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi 7-sinf darsligi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2017. (115-bet)

- 2.** XIV asrda Chig'atoy xonlaridan kim birinchi bo'lib o'z qarorgohini Movarounnahrga ko'chirgan?

A) **Kebek**    B) *Munke*  
C) *Tug'luq Temur*    D) *Abulxayrxon*

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining o'rta asrlar davriga oid. Kebekxon mo'g'ul hukmdorlari orasida birinchi bo'lib o'z qarorgohini Movarounnahrga ko'chirgan.

**To'g'ri javob:** **A**

**Manba:** A.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi 7-sinf darsligi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2017. (86-bet)

- 3.** O'zbekiston hududidagi qaysi manzilgohda ilk shahar alomatlari ko'zga tashlanadi?

A) **Jarqo'ton**    B) *Obishir*    C) *Selengur*  
D) *Ko'lbuloq*

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining qadimgi davriga oid. Surxon vohasida (hozirgi Sheroboddan uncha uzoq bo'limgan joy) Jarqo'ton manzilgohi vujudga kelgan. Jarqo'ton qurilishi tarixida ilk shahar alomatlari ko'zga tashlanadi.

**To'g'ri javob:** **A**

**Manba:** A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy Qadimgi dunyo tarixi 6-sinf darsligi. "Yangiyo'l Poligraf Servis" nashriyoti. Toshkent – 2017. (77-bet)

- 4.** Rus podshosi Ivan IV bilan elchilik aloqalarini o'rnatgan Buxoro xonini toping.

A) **Abdullahxon II**    B) *Ko'chkunchixon*  
C) *Ubaydullahxon*    D) *Imomqulixon*

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XVI-XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davriga oid. Buxoro xoni Abdullahxon II o'z davlatining siyosiy ahvolini mustahkamlash maqsadida podsho Ivan IV bilan aloqalar olib borgan.

**To'g'ri javob:** **A**

**Manba:** U.Jo'rayev, Q.Usmonov, G.Jo'rayeva, N.Norqulov. O'zbekiston tarixi 8-sinf darsligi. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2019. (38-39-betlar)

- 5.** Toshkent shahri kim boshchiligidagi podsho Rossiysi qo'shinlari tomonidan egallangan? (1865-yil)

A) **M.Chernyayev**    B) *M.Skobelev*  
C) *F.Romanovskiy*    D) *fon Kaufman*

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarigacha bo'lgan davriga oid. Toshkent shahri 1865-yilda M.Chernyayev boshchiligidagi Rossiya qo'shinlari tomonidan egallangan.

**To'g'ri javob:** **A**

**Manba:** S.Tillaboyev, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi 9-sinf darsligi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2019. (25-bet)

- 6.** Rossiya imperiyasi tarkibidagi Turkiston general-gubernatorligi nechanchi yilda tashkil etilgan?

A) **1867-yilda**    B) *1875-yilda*  
C) *1856-yilda*    D) *1881-yilda*

Test topshirig'i O'zbekiston tarixining XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarigacha bo'lgan davriga oid. 1867-yilda Rossiya tomonidan bosib olingan hududlarni o'z ichiga oluvchi Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgan.

**To'g'ri javob:** **A**

**Manba:** S.Tillaboyev, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi 9-sinf darsligi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2019. (27-bet)

7. Sovetlar boshqaruvi davrida o‘zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish jarayoni qanday nom ostida o‘tkazilgan?

- A) “**Hujum**” harakati
- B) “**Bosmachilik**” harakati
- C) “**Ozodlik**” harakati
- D) “**Kolxozchilar**” harakati

Test topshirig‘i O‘zbekiston tarixining 1917-1991-yillar davriga oid. O‘zbekistonda xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish jarayoni “Hujum” harakati nomini olgan.

**To‘g‘ri javob:** A

**Manba:** Q.Rajabov, A.Zamonov.

O‘zbekiston tarixi 10-sinf darsligi. "G‘afur G‘ulom" nomidagi nashriyot-matbaa uyi. Toshkent—2017. (71-bet)

8. 1993-yilda O‘zbekiston qaysi xalqaro tashkilotga a‘zo bo‘lgan?

- A) **YuNESKO**
- B) *ShHT*
- C) *MDH*
- D) *BMT*

Test topshirig‘i O‘zbekiston tarixining mustaqillik davriga oid. 1993-yil 29-oktabrda YuNESKOning Parijdagi qarorgohida O‘zbekistonni YuNESKOga a‘zolikka qabul qilish marosimi bo‘ldi.

**To‘g‘ri javob:** A

**Manba:** N.Jo‘rayev, A.Zamonov.

O‘zbekiston tarixi 11-sinf darsligi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent—2018. (131-bet)

9. O‘zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyat hisoblanadigan organni toping.

- A) **Vazirlar Mahkamasi**
- B) *Oliy Majlis*
- C) *Oliy Sud*
- D) *Konstitutsiyaviy sud*

Test topshirig‘i O‘zbekiston tarixining mustaqillik davriga oid. Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining bajarilishiga rahbarlikni ta‘minlovchi O‘zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organidir.

**To‘g‘ri javob:** A

**Manba:** N.Jo‘rayev, A.Zamonov.

O‘zbekiston tarixi 11-sinf darsligi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent—2018. (15-bet)

10. Qaysi daryo qadimda Yaksart deb atalgan?

- A) **Sirdaryo**
- B) *Amudaryo*
- C) *Zarafshon*
- D) *Qashqadaryo*

Test topshirig‘i O‘zbekiston tarixining qadimgi davriga oid. Qadimda Orol dengizi bo‘ylarida, Sirdaryoning (qadimgi nomi Yaksart) quyi oqimida

saka-tiay-taradarayya, ya’ni daryoning narigi tomonida yashovchi saklar deb atalgan qabilalar yashaganlar.

**To‘g‘ri javob:** A

**Manba:** A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy Qadimgi dunyo tarixi 6-sinf darsligi.

"Yangiyo‘l Poligraf Servis" nashriyoti. Toshkent—2017. (77-bet)

11. XIX asrning o‘rtalarida Toshkent shahrining nechta darvozasi bo‘lgan?

- A) **12 ta**
- B) *9 ta*
- C) *6 ta*
- D) *14 ta*

Test topshirig‘i O‘zbekiston tarixining XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarigacha bo‘lgan davriga oid.

XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahrining 12 ta, ya’ni Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag‘bon, Chig‘atoy, Ko‘kcha, Samarqand, Kamolon, Beshyog‘och, Qo‘ymas, Qo‘qon, Qoshg‘ar darvozalari bo‘lgan.

**To‘g‘ri javob:** A

**Manba:** S.Tillaboyev, A.Zamonov.

O‘zbekiston tarixi 9-sinf darsligi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent—2019. (23-bet)

12. Ikkinci jahon urushi yillarda

O‘zbekistonning qaysi shahrida metallurgiya zavodi bunyod etilgan?

- A) **Bekobod**
- B) *Qo‘qon*
- C) *Buxoro*
- D) *Navoiy*

Test topshirig‘i O‘zbekiston tarixining 1917-1991-yillar davriga oid. 1944-yil mart oyida Bekobod shahrida O‘rta Osiyoda dastlabki zamonaviy metallurgiya kombinati – O‘zbekiston metallurgiya zavodining birinchi navbati ishga tushirilgan.

**To‘g‘ri javob:** A

**Manba:** Q.Rajabov, A.Zamonov.

O‘zbekiston tarixi 10-sinf darsligi. "G‘afur G‘ulom" nomidagi nashriyot-matbaa uyi. Toshkent—2017. (92-bet)

13. VI-VII asrlarda O‘rta Osiyo aholisining asosiy qismi qaysi dinga e’tiqod qilgan?

- A) **zardushtiylik**
- B) *moniylik*
- C) *nasroniylik*
- D) *buddaviylik*

Test topshirig‘i O‘zbekiston tarixining o‘rta asrlar davriga oid. VI-VII asrlarda O‘rta Osiyoda zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, moniylik, qam (shomoniylilik) kabi bir nechta mahalliy va boshqa o‘lkalardan kirib kelgan dirlar mavjud bo‘lgan. Aholining ko‘philigi zardushtiylik diniga e’tiqod qilgan.

**To‘g‘ri javob: A**

**Manba:** A.Muhammadjonov. O‘zbekiston tarixi 7-sinf darsligi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi. Toshkent—2017. (23-bet)

14. XIX asr boshida qaysi hukmdorning hukmronligi davrida Qo‘qon adabiy muhiti shakllangan?

- A) **Umarxon**
- B) *Sheralixon*
- C) *Xudoyorxon*
- D) *Erdonabiy*

Test topshirig‘i O‘zbekiston tarixining XVI-XIX asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davriga oid. Umarxon va uning umr yo‘ldoshi, mashhur o‘zbek shoirasi Nodiraning sa‘y-harakatlari natijasida XIX asr boshlarida Qo‘qon ilm-ma’rifat markaziga aylandi va bu yerda Qo‘qon adabiy muhiti shakllandi.

**To‘g‘ri javob: A**

**Manba:** U.Jo‘rayev, Q.Usmonov, G.Jo‘rayeva, N.Norqulov. O‘zbekiston tarixi 8-sinf darsligi. "O‘qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent—2019. (142-bet)

15. Vazirlar Mahkamasining 1997-yildagi qarori bilan har ikki yilda bir marotaba qaysi shaharda "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali o‘tkazilib kelinmoqda?

- A) **Samarqand**
- B) *Buxoro*
- C) *Xiva*
- D) *Qo‘qon*

Test topshirig‘i O‘zbekiston tarixining mustaqillik davriga oid. Vazirlar Mahkamasining 1997-yildagi qarori bilan har ikki yilda bir marotaba Samarqand shahrida "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali o‘tkazila boshlandi.

**To‘g‘ri javob: A**

**Manba:** N.Jo‘rayev, A.Zamonov. O‘zbekiston tarixi 11-sinf darsligi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent—2018. (104-105-betlar)